

O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi kimyo sanoat mahsulotlarining 23-iyul sanasidagi savdo yakunlari

// 23.07.2024

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/birja20240723>



"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi o'z savdo maydonchasi orqali tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan kimyo mahsulotlari savdosining 2024-yil 23-iyul sanasidagi yakuni bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etadi.

Joriy yilning 22-iyul kuni "O'zkiyosanoat" AJ tizimidagi korxonalar tomonidan O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi ochiq birja savdolari orqali jami 8375,0 tonna 22 915,3 mln so'mlik mineral o'g'itlar

sotildi. O'tgan kuni bu ko'rsatkich past bo'lgan, ya'ni 19-iyul kuni 21 116,2 mln so'mlik 7521,1 tonna mineral o'g'itlar sotilgan.

Birja savdolariga tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan ammiakli selitra, karbamid, sulfat ammoniy, ammfos, PS-Agro, kaliyli o'g'itlar, superfosfat azot-fosforli o'g'it kabi mahsulotlar qo'yildi. Savdoga qo'yilgan mineral o'g'itlardan ammiakli selitra eng ko'p sotilgan mahsulot bo'lib, sotuvning 46,8 foizini tashkil etdi.

Shuningdek, "O'zkimyosanoat" AJ tizimidagi korxonalar tomonidan mineral o'g'itlardan tashqari bugungi kun sanoatida keng qo'llanilayotgan PVX, kaustik soda, formalin, natriy gipoxlorid, kalsinatsiyalangan soda, azot kislotasi va suyuq kislorod kabi bir qator kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Ular ham doimiy ravishda birja savdolariga qo'yib boriladi.

23-iyul kuni jami 8834,9 mln so'mlik boshqa turdagi kimyo mahsulotlar sotildi. O'tgan kuni bu ko'rsatkich past bo'lgan, ya'ni 22-iyul kuni 6169,8 mln so'mlik boshqa turdagi kimyo mahsulotlar sotilgan. Sotuvning asosiy qismini, ya'ni 72,7 foizini kontsentratsiyalangan azot kislotasi mahsuloti tashkil etdi.

O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi "O'zkimyosanoat" AJ savdo maydonchasi orqali tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar savdosi bo'yicha barcha ma'lumotlarni www.uzkimyosanoat.uz rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi <https://t.me/uzkimyosanoat> va <https://www.facebook.com/uzkimyosanoat/> rasmiy sahifalari orqali olishingiz mumkin.

Mahsulotlarni yetkazib berish va ularning sifat darajasi bo'yicha taklif va e'tirozlaringiz bo'lsa, (78) 140-74-48 ishonch telefon raqamiga murojaat qilishingiz mumkin.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati